

Serebral tipdagi falajliklar

Oldingi markaziy pushta to'la zararlangan, qarama-qarshi tomonda markaziy gemiparez yoki gemiplegiya, qisman zararlangan, markaziy monoparez yoki monoplegiya rivojlanadi. Ushbu pushtaning oyoq proeksion sohasi zararlangan, monoparez oyoqda, qo'l proeksion sohasi zararlangan, monoparez qo'lda rivojlanadi. Qarama-qarshi tomonda VII va XII nervlarning markaziy falajligi ham kuzatiladi. Shuningdek, XI nerv spinal yadrosining markaziy innervatsiyasi buzilishi hisobiga, qarama-qarshi tomonda yelka pastga tushib qoladi. *Oldingi markaziy pushta* qo'zg'atilsa, u holda qarama-qarshi tomonda motor tipdagi fokal xurujlar ro'y beradi. Bunga **Jekson motor xurujlari** deyiladi. Fokal xurujlar yuz muskullaridan boshlangan, demak patologik o'choq oldingi markaziy pushtaning pastki qismida, oyoqdan boshlangan – pushtaning ustki qismida joylashgan.

Ichki kapsula zararlanishida qarama-qarshi tomonda markaziy gemiparez yoki gemiplegiya rivojlanadi. Ichki kapsulada piramidal yo'llar zich joylashib o'tgani bois – tekis gemiparez, oldingi markaziy pushtada yoyilib joylashgani uchun – notekis gemiparez (qo'lda kuchliroq, oyoqda yengilroq parez) kuzatiladi. Ichki kapsula zararlanishida keyinchalik **Vernike-Mann holati** shakllanadi. *Miya ustuni zararlanishida* alternirlashgan tipdagi gemiparezlar rivojlanadi: o'choq tomonda kranial nervlarning periferik falajligi, qarama-qarshi tomonda markaziy gemiparez

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz